



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



MADANIYAT VA SAN'AT SOHALARINI RIVOJLANTIRISH

Qo'ziboyeva Ozoda Qaxramon qizi

Rustamov Mexrojiddin Kamolidin o'g'li

ozodaqoziboyeva656@gmail.com

Ilmiy raxbar: Qo'ziboyev Vohit Alijon o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Annotatsiya; *Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish masalalari har tomonlama yoritilgan bo'lib, ularning jamiyat taraqqiyoti, ma'naviy muhit va milliy o'zlikni anglashdagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Madaniyat va san'at insoniyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari hamda estetik dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy rivojlanish jarayonlari bilan uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, madaniy muassasalar faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni san'at jarayoniga joriy etish hamda yosh avlodning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish masalalari yoritib beriladi. Shuningdek, madaniyat va san'atning ta'lim, tarbiya va ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar; *Madaniyat, san'at, milliy madaniyat, ma'naviyat, ma'naviy meros, madaniy qadriyatlar, san'at turlari, ijodkor, estetik tarbiya, madaniy muassasalar, madaniy siyosat, madaniyatni rivojlantirish, san'atni qo'llab-quvvatlash.*

Kirish

Bugungi globallashuv va jadal rivojlanish sharoitida madaniyat va san'at sohalari jamiyat hayotining ajralmas hamda muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyat va san'at insoniyatning ma'naviy dunyosini boyituvchi, estetik didini shakllantiruvchi hamda milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy hodisalardandir. Ular orqali jamiyatning tarixiy xotirasi, urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlari avlodlardan avlodga uzatiladi. Shu bois madaniyat va san'atni rivojlantirish masalasi har bir davlatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish yangi yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va samarali boshqaruv mexanizmlarini talab etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi san'atning yangi shakllari va yo'nalishlarini yuzaga keltirmoqda, madaniy mahsulotlarni keng ommaga yetkazish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, milliy madaniyatni asrab-avaylash, tarixiy va madaniy merosni saqlash hamda uni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu sohalarning rivoji turizm, kreativ industriya, ta'lim va boshqa ko'plab yo'nalishlarning yuksalishiga xizmat qiladi. Natijada yangi ish o'rinlari yaratiladi, madaniy muhit yaxshilanadi va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi oshadi. Shuningdek, madaniyat va san'at millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va madaniy mulqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat bu - xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni, avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Asosiy qism

Yangilanayotgan O'zbekistonda e'tibor qaratilayotgan muhim sohalardan biri ham aynan madaniyat va san'at sohasidir. Madaniyat va san'at mamlakatning, millatning yuzi, ko'rki hisoblanadi. Har bir xalq o'z milliy madaniyati, urf-odati o'z shakl shamoiliga egaligi bilan alohida ajralib turadi. O'zbek xalqining faqat o'zigagina xos boy madaniy merosi borki, u o'z jozibasi bilan kurrai zamin ahlini o'ziga rom etib kelmoqda. Bu jahoniy e'tirof davlatimiz rahbari tomonidan soha taraqqiyotiga qaratilayotgan katta e'tibor, g'amxo'rlikning mevasi desak yanglishmagan bo'lamiz. Jumladan, sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustda "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3920-sonli qarori, 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori, 2020-yil 26-mayda "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli farmonlari qabul qilindi. Shu bilan birgalikda 2021-yil 9-dekabrda "Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-36-sonli hamda 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarorlarida ham sohaga oid dolzarb masalalar belgilangan bo'lib, ularni amalga oshirishda soha mutasaddilariga juda katta vazifalar yuklatilgan. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2021-yil 6-yanvarda Senat tomonidan ma'qullangan "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni madaniy faoliyatni, madaniyat tashkilotlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, ijodkorni, ijodiy jamoani, ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash borasida ham nihoyatda ahamiyatlidir. Yurtimizda madaniyommaviy tadbirlar konsert-tomosha faoliyati xalq ijodiyoti, xalq o'yinlari, madaniyat markazlari faoliyati, milliy madaniy markazlar, madaniy faoliyat sohasida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash madaniyat obyektlarini va san'at asarlarini ommalashtirish, olis hududlarda madaniyatni rivojlantirish, madaniyat xodimlarini ijtimoiy himoya qilish borasidagi dasturilamal hisoblanadi. Sohaga hamda soha vakillariga





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qaratilayotgan yuksak e‘tibor namunasi sifatida 15-aprel sanasini aynan “Madaniyat xodimlari kuni” etib belgilanishida ham ko‘rishimiz mumkin. Avval hech kuzatilmagan bu voqelik soha xodimlarini benihoya mamnun etti. Ushbu tarixiy voqelik, soha xodimlari tomonidan mamnuniyat bilan qarshilandi hamda quvontirdi. O‘z vazifalarini yanada sidqidildan ado etishlarida turtki bo‘ldi desak, yanglishmaymiz. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan, “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli Prezident qarori yoshlarni madaniyat markazlariga jalb etish, tanlovlar, festivallar o‘tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomoshha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san‘at sohasida iste‘dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llabquvvatlash, ta‘lim muassasalarini milliy cholg‘ular musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta‘minlashning yaxlit tizimini yaratish, musiqa fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholg‘u” shiori ostida cholg‘u ijrochiligi dars mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilishi, o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko‘ra milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish mahorati, tasviriy va amaliy san‘at, hunarmandchilik yo‘nalishlarida amaliy to‘garaklar tashkil etilishi kabi bir qator vazifalar maqsad qilingan. Yurtimizda madaniyat va san‘at ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida aks etgan ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor choratadbirlarga nihoyatda hamohangdir. Mazkur islohotlar ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasining hayotiy ro‘yobiga, “Yangi O‘zbekiston - ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishga hissa qo‘shadi deb ayta olamiz. Har bir millat o‘z madaniyat va san‘atining qudrati bilan jahon tamaddunidan mustahkam joy egallaydi. Aynan mazkur soha taraqqiyoti mamlakatning kuch va salohiyatini, xalqning qadr qimmatini, dunyodagi obro‘-e‘tibori hamda maqomini namoyon etuvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Shu paytgacha yurtimizda mavjud bo‘lgan 894 ta sobiq madaniyat va aholi dam olish markazining 252 tasi naridan-beri ta‘mirlanib, qolgan 642 tasida esa ta‘mirlash ishlari deyarli to‘xtab qolgan edi. Konsepsiyada ana shu muhim va o‘ta dolzarb masalalar yechimi ham o‘z ifodasini topgan. Konsepsiyaga binoan, 2019-2022-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 26 ta madaniyat markazi yangidan quriladi, 45 tasi rekonstruksiya qilinadi va 76 tasi kapital ta‘mirlanadi. Shunday qilib, uch yil mobaynida 147 ta madaniyat markazi zarur vositalar bilan to‘liq ta‘minlangan o‘z zamonaviy binosiga ega bo‘ladi. Konsepsiyada Madaniyat vazirligi tomonidan an‘anaviy ravishda “Xalq cholg‘ulari ijrochilari”, Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” va Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish, har yil 21-27-mart kunlari Teatr tomoshalari





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



haftaligini aholi uchun bepul tashkil etish, Buyuk ipak yo‘lining mamlakatimizdan o‘tgan qismini “Ipak yo‘li: Zarafshon daryosi vohasi” va “Ipak yo‘li: Farg‘ona – Sirdaryo havzasi” nomi ostida YUNESKONing Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga tavsiya etish kabi qator vazifalar ham belgilab qo‘yilgan.

Xulosa

Madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish jamiyatning ma‘naviy yuksalishi, milliy o‘zlikni anglash va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu sohalar xalqning tarixiy merosi, an‘ana va qadriyatlarini asrab avaylash bilan birga, zamonaviy ijodiy g‘yalar va innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Madaniyat va san‘at orqali jamiyatida estetik did, ijodiy tafakkur va vatanparvarlik tuyg‘ulari shakillanadi.

Madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu sohalarning rivoji turizm, kreativ industriya, ta‘lim va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarning yuksalishiga xizmat qiladi. Natijada yangi ish o‘rinlari yaratiladi, madaniy muhit yaxshilanadi va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi oshadi. Shuningdek, madaniyat va san‘at millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va madaniy muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish masalasi bugungi kunda nafaqat ma‘naviy ehtiyoj, balki strategik ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu mavzuni chuqur o‘rganish, uning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish orqali jamiyatda ma‘naviy barkamollikni yuksaltirish, milliy qadriyatlarni asrash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyatlari kengayadi.

Bugungi kunda san‘at va madaniyat sohasiga qaratilayotgan yuksak e‘tibor va samarali islohotlardan bir necha namunalar keltirib o‘tdik halos. Bundan tashqari, soha rivojiga oid qator chora-tadbirlar va imzolangan qarorlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram prezidentimiz tomonidan san‘at va madaniyat sohasiga qaratilayotgan e‘tibor va keng imkoniyatlar soha rivojidadagi ulkan o‘zgarishlarga zamin yaratmoqda. Mana shunday ishonch va yuksak g‘amxo‘likni his qilgan holda biz yoshlar va soha mutaxasislari yanada g‘ayrat va shijoat bilan faoliyat olib borishi va soha ravnaqiga bor bilim va salohiyatini safarbar etishi lozim. Zero, Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganlaridek, “Yangi O‘zbekiston jahon maydonida kuchli, salohiyatli, munosib obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan, hartomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi.”

Biz uchun ma‘naviyat - insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e‘tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma‘naviyat - jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir

Har tomonlama rivojlanayotgan, yangilanayotgan O‘zbekistonda iqtisodiyot bilan bir qatorda taraqqiy etgan ilm-fan cho‘qqilarini egallagan yoshlarga yuksak madaniyat va milliy ma‘naviyat ham zurur ekanligini hayotning o‘zi taqazo etmoqda. Shu ma‘noda mamlakatimiz istiqbolini yaratuvchilari bo‘lgan biz yoshlar vatanparvar, sadoqatli va





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yuksak ma’naviyatli bo‘lib tarbiyalanmoqdamiz. O‘zimizdan keying kelajak avlodlarni ham xuddi shunday tarbiya topishida shakillanishda esa butun kuchg‘ayratimizni safarbar etishimiz barchamizning birinchi galdagi vazifamizdir. Tomirimizda buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashash va yuksak maralarga erishish bizning eng katta maqsadimiz hisoblanadi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston yoshlari yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, yurtimizni shon-shuhrati uchun doim xizmatga labbay deb javob berishga biz yoshlar hamisha tayyormiz

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. - Toshkent: 2021. O‘qituvchi. - B. 184.
2. To‘ychiyeva S. Madaniyat va san’atimiz rivojidadagi zarsahifalar // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6.
3. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi Axborot-qidiruv tizimi. www.lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarori. Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
7. Abdullayev R. Milliy madaniyat va ma’naviy taraqqiyot. – Toshkent.
8. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi rasmiy hujjatlari va materiallari.

